

**Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlash
bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

2026-yil 1-fevral holatiga

Suv xo‘jaligi sohasida ijro intizomiga qat’iy rioya etilishini ta’minlash yuzasidan mustahkam tizim yaratish, tartib o‘rnatish, temir intizomni joyiga qo‘yish, rahbarlar va xodimlarning dunyoqarashini o‘zgartirish – soha xodimlarining eng muhim hamda asosiy faoliyat mezonlaridir.

“Ijro.gov.uz” tizimidagi Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qarori asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz “texnologik zanjir” asosida amalga oshirilib, ijro intizomiga rioya etish borasida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib, muayyan natijadorlikka erishildi.

2026-yilning yanvar oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Administratsiya rahbari hamda Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarini 25-yanvarga qadar ijrosini ta’minlashga qaratilgan I–II kartoteka topshiriqlar ro‘yxati 2025-yil 17-dekabr kuni, vazir o‘rinbosarlari kesimidagi Kalendar reja hamda “Yo‘l xarita”lar ishlab chiqilib, vazir bilan eslatma va ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Hisobot davrida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan Administratsiya rahbarining 19 ta, Vazirlar Mahkamasining 32 ta (100%) topshirig‘i to‘liq bajarilgan va o‘rnatilgan tartibda nazoratdan chiqarilgan.

Prezident topshiriqlarining 71 tasidan 70 tasi bajarilgan. Bugungi kunda bajarilmasdan qolgan bitta topshiriqni nazoratdan olish choralari ko‘rilmoqda.

Shuningdek, 2026-yil fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 78 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan 49 tasida vazirlik asosiy ijrochi, 29 tasida ham ijrochidir.

Administratsiya rahbarining 23 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan 19 tasida vazirlik asosiy ijrochi, 4 tasida ham ijrochi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan 19 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 8 tasida ham ijrochi etib belgilangan.

Topshiriqlar ijrosini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar har hafta vazirlik markaziy apparati yig‘ilishlari hamda har oy yakuni bilan hay’at yig‘ilishida tanqidiy tahlil qilib borilmoqda.

Tashkiliy nazorat va tahlil bo‘limi